

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 102 (1163), 2024-yil 27-may, dushanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



ROSSIYA FEDERATSIYASI PREZIDENTI DAVLAT TASHRIFI BILAN O‘ZBEKISTONGA KELDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin 26-may kuni davlat tashrifi bilan mamlakatimizga keldi.



Toshkent xalqaro aeroportida Rossiya Prezidentini davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev kutib oldi.

Oliy martabali mehmon sharafiga ikki mamlakat davlat bayroqlari ko‘tarildi va faxriy qorovul saf tortdi.

Shundan so‘ng Prezidentlar “Yangi O‘zbekiston” bog‘iga tashrif buyurdi.

An‘anaga ko‘ra, Rossiya rahbari Mustaqillik monumentiga gulchambar qo‘ydi.

Majmuani qisqa ko‘zdan kechirish davomida oliy martabali mehmonga ushbu me‘moriy ansambl mazmuni va o‘ziga xos jihatlari haqida ma‘lumot berildi.

Tashrifning asosiy tadbirlari 27-may kuni bo‘lib o‘tadi.

Oliy darajadagi muzokaralar davomida rahbarlar O‘zbekiston bilan Rossiya o‘rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish masalalarini ko‘rib chiqadi.

Sammit yakunlari bo‘yicha ikki tomonlama hujjatlar to‘plami qabul qilinishi rejalashtirilgan. Prezidentlar, shuningdek, O‘zbekiston va Rossiya hududlari kengashining birinchi yig‘ilishida ham ishtirok etadi.

O‘ZA

Strategik sheriklik

O‘ZBEKISTON VA ROSSIYA O‘RTASIDAGI HAMKORLIK TOM MA‘NODA XALQCHIL BO‘LIB BORMOQDA

ROSSIYA PREZIDENTI VLADIMIR PUTINNING 26-MAY KUNI O‘ZBEKISTONGA BOSHLAGAN DAVLAT TASHRIFI XALQARO SIYOSIY MAYDONDA YUQORI QIZIQISHGA SABAB BO‘LMOQDA.

Rossiya va xorijiy mamlakatlarning ijtimoiy-siyosiy va ekspert doiralari orasida ushbu tashrif O‘zbekiston — Rossiya ko‘p qirrali hamkorlik va strategik sheriklik munosabatlari rivojida muhim bosqich, deya baholanyapti.

Tashrif haqida Rossiya vakillari “Dunyo” axborot agentligiga intervyu berar ekan, jumladan, quyidagi fikrlarni bayon qilishdi.

Vladimir DJABAROV, Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisi Federatsiya Kengashi Xalqaro ishlar bo‘yicha qo‘mitasi raisining birinchi o‘rinbosari:

— Bugun Rossiya va O‘zbekiston o‘rtasidagi munosabatlar, birinchi navbatda, ikki davlat rahbarlari yuritayotgan siyosat tufayli juda yuqori darajaga chiqdi. Mamlakatlarimiz

yetakchilari o‘rtasida g‘oyat iliq, do‘stona va ochiq munosabatlar shakllangan.

Davlatlararo va xalqaro masalalarda O‘zbekiston bizni qo‘llab-quvvatlayotganini sezib turibmiz.

O‘zbekistonni doimo iliq esdaliklar bilan eslaymiz. Chunki ikkinchi jahon urushi yillarida o‘zbek zaminini yuz minglab odamni qabul qildi, ularga uy berdi, evakuatsiya qilingan ko‘plab korxonalar urushdan keyin O‘zbekistonda qoldi.

O‘zbekiston men uchun alohida mamlakat. Chunki o‘zim samarqandlikman — shu zaminda o‘zib-ulg‘ayganman. Kichik vatanim, desam ham bo‘ladi. U bir paytlar Tog‘li Qorabog‘dan kelgan bobomga boshpana bergan.

O‘zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari orasida eng katta insoniy salohiyatga ega davlat. Mamlakat muhim strategik xomashyo konlaridan tortib, qishloq xo‘jaligi va energetikani rivojlantirishgacha barcha sharoitga ega.

Davomi 2-beta

BUYUK O‘ZBEK YO‘LI

DEMOKRATIK TRANSFORMATSIYA

Haq-huquqni talab qilish va burchga mas‘uliyat muvozanatlashgan jamiyatga intilyapmiz

Odamlar haq-huquqi himoya qilinadigan jamiyatda yashashni istaydi. Chunki huquqiy davlatda fuqaro o‘z xohish-istaklarini to‘la ro‘yobga chiqarish imkoniga ega bo‘ladi. Bu, o‘z navbatida, mamlakat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Zero, demokratiya ustuvor bo‘lgan joyda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma‘rifiy jabhalar ham birdek rivojlanadi. Shu ma‘noda, yangi O‘zbekistonni bunyod etish, yangi uyg‘onish davriga qadam qo‘yish uchun, avvalo, huquqiy asosni mustahkamlab olish zarurati bor edi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning qabul qilinishi mamlakatimizda muhim tarixiy bosqichni boshlab berdi.

Konstitutsiyamizdagi o‘zgarishlar hayotimizda amaliy ifodasini topmoqda. Zero, qonunlar amalda ishlamas, nechog‘liq mukammal ishlab chiqilganidan zarracha naf yo‘q. Bosh qonunimiz zamonga mos ravishda qayta ko‘rib chiqilgach, hayotimizda ijobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lganini e‘tirof etish kerak.

O‘zbekistonda demokratik va huquqiy davlat tuzish yo‘lidagi jiddiy o‘zgarish hamda sa‘y-harakatlar xalqaro maydonda ham e‘tirof etilyapti. Qonunlar faqat so‘zda emas, amalda ishlayotgani o‘z isbotini topdi. Masalan, joriy yil mamlakatimiz intellektual

mulknining huquqiy muhofazasi va himoyasi holati bo‘yicha AQSH Savdo vakilligining (USTR) maxsus hisobotida kuzatuvdagi davlatlar ro‘yxati (qora ro‘yxat)dan chiqarildi. Oldingi yillarda majburiy mehnat va bolalar mehnatiga barham berish, diniy erkinlik kabi yo‘nalishlarda O‘zbekiston e‘tirof etilgan va qora ro‘yxatlardan chiqarilgan edi. Bularning barchasi xalqaro standartlarga mos demokratik davlat tuzish yo‘lida jadal odimlayotganimizdan dalolat beradi.

Davomi 3-beta

Yangicha yondashuvlar



**PILLA BOQISH
MAJBURIYAT EMAS**
balki daromad manbaiga aylandi

Inson qadri uchun

MA‘RIFAT NURIDAN

charoq‘on kunlar



Ezgulikka yo‘lovchi tashabbuslar bor bo‘lsin, yana vodiymiz. Bu gal “Ma‘rifat ulashib” loyihasi doirasida yoshlar orasiga yo‘l oldik. Safarimiz Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg‘ona filialidan boshlandi.

Vodiycha tavoze bilan kutib olgan ustozlar, qalblaridagi jo‘shqinlik ko‘zlarida balqib turgan talabalar kayfiyatiga mos qadamimiz dadillashadi. Mezbon-u mehmonlardagi uyg‘un ko‘tarinkilik yangi O‘zbekistonni bunyod etish

yo‘lidagi ulkan islohotlar, hayotimizda bo‘layotgan ijobiy o‘zgarishlar insonlar tafakkurida ham aks sado berayotganidan dalolatdir. Qo‘limga atirgullar dastasini tutgan talaba yigitga yuzlandim:

— Telekommunikatsiya texnologiyalari yo‘nalishi 3-bosqich talabasi Ahrorbek Ergashevman, — dedi yigit shaxdam ovoza.

Oliy ta‘lim muassasasi peshtoididagi zarhal harflardagi yozuvga ishora qilib:

— O‘g‘lim, allomai zamon bobomizdan boshlaymizni subhatimizni? — dedim. Savolimdan yuzlari yorishib ketdi, keyin esa uning so‘zlarini yayrab eshita boshladim:

— Muso al-Xorazmiy buyuk matematik, astronom, fan tarixidagi ilk qomusiy olimlardan biri. Amerikalik mashhur tarixchi Jorj Sarton buyuk bobomizning ilmiy merosiga ishora qilib: “Al-Xorazmiy o‘z zamonasining eng buyuk matematigi, agar barcha holatlar e‘tiborga olinsa, barcha zamonlarning eng buyuk matematiklaridan biri” deya e‘tirof etgan...

To‘xtatmasam, ulug‘ matematik haqida soatlab gapira olishi ko‘rinib turgan yosh do‘stimga yelkasiga “yetarli” deganday yengilgina qoqdim. Ammo shu bir-ikki daqiqalik ma‘lumot ham ko‘nglim kengliklarida yurtimiz, yoshlarimiz uchun gupurib kelayotgan faxr hissini ulkanlashtirib yubordi...

Davomi 5-beta



Munosabat

SIFATLI TIBBIY XIZMAT HAM AHOLIGA YAQINLASHYAPTI



Muzaffara ABDIYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
Fuqarolarning sog'lig'ini saqlash
masalalari qo'mitasi a'zosi

Kasallikni davolashdan ko'ra, oldini olish oila uchun ham, davlat uchun ham samarali va foydali. Shu bois, "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimiz salomatligini saqlash, aholining sog'lom hayot kechirishini ta'minlash, onalik va bolalarni muhofaza qilishga alohida e'tibor qaratilayotgan. Islohotlar, eng avvalo, birlamchi tibbiyot bo'g'ini, tez va shoshilinch tibbiy yordam tizimini o'zgartirishdan boshlandi. Har bir mahallada xonadonbay ishlaydigan patronaj xizmatini tashkil etish orqali sog'liqni saqlash tizimi aholiga yaqinlashtirildi.

Yuqori malaka va texnologiya talab qiladigan tibbiy xizmatlar ko'lami kengayib, tibbiyot tashkilotlari va aholini dori-darmon, tibbiyot buyumlari bilan ta'minlash uchun byudjetdan yo'naltirilayotgan mablag' hajmi yildan yilga ortayotir. Masalan, birgina 2022-yili joylarda 136 ta oilaviy shifokor punkti va oilaviy poliklinika, chekka hududlarda

1000 dan ortiq mahalla tibbiyot punkti tashkil etildi. Aholiga bepul tarqatiladigan 70 xildagi dori-darmon uchun ajratiladigan mablag' miqdori o'tgan yillarga nisbatan 3 barobar oshirildi.

Yaqin yillargacha yurtimiz tibbiyotidagi ahvol talab darajasida emas edi. Xususan, chekka qishloqlardagi qishloq vrachlik punktlari binosi eskirgan, aholiga sifati tibbiy xizmat ko'rsatish uchun yetarli sharoit yo'q edi. Odamlar tibbiy xizmat sifati pastligidan oddiy kasallikka tashxis qo'ydirish yoki muolaja qildirish uchun uzoq yo'l bosib, viloyat markazi, hatto poytaxtga borishga majbur edi.

Sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish, tibbiy xizmat ko'rsatish sifati hamda samaradorligini oshirish, malakali tibbiy kadrlar tayyorlash, sohaga yangi boshqaruv, zamonaviy texnologiya hamda davolash usullarini kengiriy qilib borasidagi amaliy ishlar natijasida ilgari poytaxtimizda o'tkazilgan 200 turdagi operatsiya va tashxisning aksariyati bugun mahalliy shifoxonalarda muvaffaqiyatli bajarilmoqda.

Yaqin-yaqingacha ko'pchilik imtiyozli yo'llanma (order) asosida davolanish uchun ne-ne qiyinchiliklarga duch kelardi.

Yurtdoshlarimiz order olish uchun mutasaddi vazirliklar eshigi oldida kunlab, oylab navbata turardi. Prezidentimizning tegishli qarorlari bilan bunga chek qo'yildi. Bunday amaliyotdan to'liq voz kechilib, ehtiyojmand aholi uchun respublika tibbiyot markazlarida xizmat ko'rsatishning ochiq va shaffof, yangi tizimiga o'tildi.

Bugun 130 dan ziyod turdagi jarrohlik amaliyoti viloyat shifoxonalarda, 60 turi esa tumanlarda birinchi marta yo'lga qo'yilgan, tibbiyot xodimlarining oyligi 3,1 barobar oshirilib, majburiy mehnatga jalb etilishiga barham berilgan, eng muhimi, aholining o'rta umr ko'rish davomiyligi 74 yoshdan oshishiga erishilgan sohaga e'tibor samarasidir.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda har kim sog'lig'ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga egaligi, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini qonunda belgilangan tartibda davlat hisobidan olishga haqli ekani, davlat sog'liqni saqlash tizimini, uning davlat va nodavlat shakllarini, tibbiy sug'urtaning har xil turlarini rivojlantirish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta'minlash choralarini ko'rishini belgilab qo'yildi.

Bu aholi, ayniqsa, moddiy yordamga muhtoj fuqarolar sog'lig'ini saqlashga davlat g'amxo'rlik qilishini anglatadi. Kafolatlangan tibbiy yordamga oid normaning belgilanishi onalar va bolalar o'limi, yuqumli kasalliklar tahdidini bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega.

2023-yilda mamlakatimizda 900 mingdan ortiq chaqaloq tug'ilgan. Prognozlariga ko'ra, 2030-yilga borib, O'zbekiston aholisi soni 40 millonga yetadi. Bunday katta nufusli davlatda tinchlik va barqarorlikni saqlash, xalqning to'laonli hayot kechirishini ko'zlab munosib shart-sharoit yaratish uchun iqtisodiyot ham, boshqaruv ham, ta'lim ham, jumladan, tibbiyot ham yangicha bo'lishi, o'sish va rivojlanish ta'minlanishi kerak.

Shu yil 21-may kuni Sog'liqni saqlash loyihalari markazi qilyotgan ishlar va yangi takliflar taqdimoti bilan tanishish davomida Prezidentimiz ushbu masalalarga alohida to'xtalib, jamiyatda sog'lom turmush tarzini keng yoyish orqali kasalliklarning oldini olish, odamlarda o'z salomatligiga mas'uliyat hissini kuchaytirish muhimligini ta'kidladi. Bu, o'z navbatida, mamlakatimizda sog'liqni saqlash sohasini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish masalasi davlat siyosati darajasidagi dolzarb vazifa ekanini ko'rsatadi. Shuning uchun ham 2017-yilda sog'liqni saqlash tizimiga 5,9 trillion so'm ajratilgan bo'lsa, hozir bu miqdor 6 barobar oshirildi. Natijada tibbiy xizmatdan foydalanish quylayligi ortdi, xususiy sektorga keng yo'l ochilib, sifatga intilish paydo bo'ldi.

Jumladan, tibbiyot tashkilotlari tarmog'i kengaytirilib, ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari soni qariyb 2 barobar ko'paydi. Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari tarmog'i hamma mahallaga kirib bordi. Ularning faoliyati

tubdan o'zgardi. Respublika muassasalari mutaxassislarining hududlarga chiqib, tibbiy ko'rik o'tkazish, tibbiy yordam ko'rsatish tizimi yo'lga qo'yildi.

Yuqumli bo'lmagan kasalliklarni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etish, xavf guruhiga kiradigan bemorlar orasida dispanserizatsiya va skrining tadbirlari, patronaj va dispanserizatsiyang samarali modellari joriy etildi. Reabilitatsiya tibbiyotini rivojlantirish, "uy stasionari" va "kunduzgi stasionar" xizmati kengaytirildi.

Individual elektron qurilmalar yordamida qayd etilgan xavf ostidagi guruhga kiruvchi ambulator bemorlarning sog'lig'i ko'rsatkichlari o'zgarishiga shoshilinch choralar ko'rish tizimi — "Mahalla profili" yaratildi, mahallalarda "Salomatlik maktabi" tashkil etildi.

Bunday tadbirlar aholi salomatligini mustahkamlash, sog'lom insonlar safini kengaytirish, sog'lom jamiyatni barpo etish uchun zamin yaratadi. Binobarin, tizimni zamon talablariga mos rivojlantirish, aholiga sifati tibbiy xizmat ko'rsatish va bu xizmatdan xalqimizni rozi qilishni davrning o'zi talab etmoqda.

Taqdimotda ilgari surilgan har bir yangi taklif sog'liqni saqlash tizimidagi muammolarni chuqur o'rganish asosida tibbiyotning eng ko'p murojaat qilinadigan birlamchi bo'g'ini va tez tibbiy yordam tizimida fuqarolar va tibbiyot xodimlarini qiynayotgan masalalar yechimiga qaratilgan bilan ahamiyatli.

Eng muhimi, ushbu takliflarni ishlab chiqishda xorijlik ekspertlarni jalb etgan holda ularning tajribasini milliy tibbiyotimizga integratsiya qilish nazarda tutilgan tizimni xalqaro standartlarga moslashtirish imkonini kengaytiradi. Jumladan, birlamchi bo'g'inda

faoliyat yurituvchi shifokor va hamshiralari vazifasi qayta taqsimlanadi. Yil yakuniga qadar eng ko'p uchraydigan 7 ta kasallik va holat bo'yicha kafolatlangan paket hamda yana 300 ta klinik protokoll qayta ko'rib chiqiladi.

Toshkent shahrida sohani raqamlashtirish bo'yicha namunaviy tizim yaratilishi, buning uchun barcha muassasalar yangi kompyuter va texnika vositalari bilan jihozlanishi, yil yakunigacha "Elektron poliklinika" va "Elektron shifoxona" tizimlari ishga tushirilishi ham ayni muddao. Bularning barchasi aholiga kafolatlangan paket asosida bepul tibbiy xizmat ko'rsatish, sohaga ajratilayotgan mablag'dan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Taqdimotda tez tibbiy yordam tizimi tahlil qilinarkan, asosiy muammo murojaatlarni kasallikning og'irligiga qarab saralamslik bilan bog'liq ekani ko'rsatib o'tildi. Shu bois, tez yordam "koll-markaz"larida bemorlarga shifokor maslahati berilishi ham qayd etildi. Bu yil Toshkent shahrida, kelasi yili boshqa hududlarda paramedik va pediatrik brigadalar tashkil qilinadi. Tizim xodimlari tibbiy maslahat shifokori, chaqiruvni saralash operatori, feldsher-paramedik yo'nalishida qayta tayyorlanadi.

Umuman, taqdimotda belgilab berilgan vazifalar nafaqat soha vakillari, balki deputatlar zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklaydi. Bu jarayonda ushbu vazifalarning samarali bajarilishi ustidan doimiy parlament nazorati olib borishimiz, sohaning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirishimiz kerak. Zotan, bu loyihalarning bosqichma-bosqich hayotga tatbiq etilishi aholining o'rta umr ko'rish davomiyligini uzaytirishga xizmat qiladi.

Strategik sheriklik



Vladimir Putin va Shavkat Mirziyoyev o'rtasidagi doimiy maslahatlashuvlar ikki davlat rahbarlari muloqot uslubi bo'lib kelgan. Vladimir Putinning Rossiya Prezidenti lavozimiga kirishganidan so'ng uchinchi xorijiy tashrifi O'zbekistonga bo'lishi ham ramziy ma'noga, ham ittifoqchilik munosabatlariga to'liq mos keladi.

O'ZBEKISTON VA ROSSIYA O'RTASIDAGI HAMKORLIK TOM MA'NODA XALQCHIL BO'LIB BORMOQDA



Andrey RUSAKOV,
rossiyalik siyosatshunos, Yevropa-Osiyo
tadqiqotlari markazi direktori:

Boshlanishi 1-betda

O'ylashimcha, hamkorlik uchun ko'plab imkoniyat mavjud. Inson kapitalining ulkanligi esa o'zbek yoshlarini ish bilan ta'minlaydigan qo'shma korxonalar tashkil etish imkoniyatini yaratadi.

Mamlakatlarimiz o'rtasidagi bugungi munosabatlar serqirra bo'lib, bular qatoriga ham parlamentlararo, ham idoralararo, ham hududlararo aloqalar kiradi. Biznes vakillari o'rtasidagi munosabatlar faol rivojlanmoqda. Madaniy-gumanitar almashinuvlarni esa alohida ta'kidlab o'tmasak bo'lmaydi.

Rossiyaliklar O'zbekistonga sayyoh sifatida kelishni juda yaxshi ko'radi. Qadimiy tarixiy shaharlar, shuningdek, go'zal zamonaviy poytaxt — Toshkent rossiyaliklar uchun sevimli sayyohlik maskanidir. O'zbeklarning an'anaviy mehmondo'stligi haqida esa turli afsonalar bor.

Ishonchim komilki, Prezident Vladimir Putinning O'zbekistonga davlat tashrifi juda samarali bo'ladi hamda ikki tomonlama munosabatlar rivojiga yangi sur'at bag'ishlaydi.

— Vladimir Putin Rossiya Prezidenti lavozimiga kirishganidan so'ng uchinchi davlat tashrifi Prezident Shavkat Mirziyoyev taklifiga binoan O'zbekistonga amalga oshirmoqda.

O'zbekiston — Rossiya munosabatlari serqirra bo'lib, energetika sohasida o'zaro hamkorlik, transport infratuzilmasini rivojlantirish, turizm, sanoat ishlab chiqarishi, qishloq xo'jaligi va boshqa ko'plab sohalarni o'z ichiga oladi. Vladimir Putin va Shavkat Mirziyoyev o'rtasidagi doimiy muloqot an'anaga aylanib ulguragan, biroq bu tashrif munosabatlar rivojida yangi davrni ochib beradi — ikki davlat yetakchilari Hududlar kengashining birinchi yig'ilishida ishtirok etadi. Shu tariqa O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi hamkorlik hududlararo tus olmoqda. Demak, turli qo'shma loyihalar soni ko'payadi. Chunki Rossiya va O'zbekistonning har bir hududi o'ziga xos ixtisoslashuv va raqobatbardoshlikka ega.

Vladimir Putin va Shavkat Mirziyoyev o'rtasidagi doimiy maslahatlashuvlar ikki davlat rahbarlari muloqot uslubi bo'lib kelgan. Vladimir Putinning Rossiya Prezidenti lavozimiga kirishganidan so'ng uchinchi xorijiy tashrifi O'zbekistonga bo'lishi ham ramziy ma'noga, ham ittifoqchilik munosabatlariga to'liq mos keladi.

O'zaro hamkorlikning yangi hududiy darajasi turizm, fan, madaniyat va ta'lim sohalarida gumanitar hamkorlikning yangi formatlarini shakllantiradi.



Shu tariqa O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi hamkorlik ko'plab byurokratik vertikalarni chetlab o'tib, tom ma'noda xalqchil bo'lib bormoqda. Vladimir Putinning ushbu tashrifi uning Xitoy va Belarusga tashrifidan so'ng amalga oshirilayotganini hisobga olsak, Belarus yaqin kelajakda a'zo bo'lishini rejalashtirayotgan Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasidagi o'zaro hamkorlikni yanada kuchaytirish to'g'risida ham so'z borishi shubhasiz.

Yevroosiyo qit'asidagi xavfsizlik masalalari global ish va suv resurslaridan foydalanishdagi qarama-qarshiliklarni hisobga olgan holda qit'a ning barcha mamlakati uchun dolzarb bo'lib, uni ikki Prezident e'tiborsiz qoldirmaydi. Natijada Rossiya ham, O'zbekiston ham strategik sheriklik munosabatlarini yangi bosqichga ko'tarishga harakat qiladi. Buning uchun esa barcha imkoniyat mavjud.

"Dunyo" AA

Biz va dunyo

HINDISTONLIK JURNALISTGA "OLTIN QALAM" MUKOFOTI TOPSHIRILDI

JORIY YILGI XALQARO TANLOVDA 40 DAN ORTIQ MAMLAKATDAN 100 GA YAQIN JURNALIST QATNASHDI

Hindiston Press-klubida "The Economic Times" gazetasi diplomatik muharriri Dipanjan Roy Chaudhuriga "Oltin qalam" mukofotini tantanali topshirish marosimi bo'lib o'tdi.



Taniqli hind jurnalisti joriy yil o'tkazilgan "Oltin qalam" XVIII Milliy mukofoti uchun xalqaro tanlovda "Chet ellik jurnalistning O'zbekiston haqidagi eng yaxshi materiali uchun" nominatsiyasi bo'yicha 2-o'ringa munosib ko'rilgan edi.

Press-klub prezidenti Gautam Lahiri O'zbekistondagi yangilanish jarayoni xalqaro maydonda, jumladan, Hindistonda ham katta qiziqish uyg'otayotgani, bu esa, o'z navbatida, chet el ommaviy axborot vositalari sahifalarida yangi O'zbekiston haqida turkum materiallar chop etilishiga sabab bo'layotganini ta'kidladi.

O'zbekistonning Hindistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Sardor Rustamboyev o'zbek va hind xalqlari o'rtasidagi ildizi asrlarga borib taqadigan an'anaviy do'stlik rishtalarini yangi bosqichga ko'tarish borasidagi sa'y-harakatlarda ommaviy axborot vositalari xodimlarining alohida o'rni borligini qayd etdi.

"Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari bosh muharriri Salim Doniyorov hindistonlik jurnalistlarni ikki davlatda hayotga tatbiq etilayotgan izchil o'zgarishlar jarayoni mazmun-mohiyati va ahamiyatini keng omмага yetkazishda faol hamkorlik qilishga chaqirdi.

O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi raisi vazifasini bajaruvchi Xolmurod Salimov joriy yilgi xalqaro tanlovda 40 dan ortiq mamlakattan 100 ga yaqin jurnalist qatnashganiga e'tibor qaratib, xorijiy ommaviy axborot vositalari vakillari taqdim etgan ijodiy ishlarda mamlakatimizdagi keng ko'lami islohotlar natijalari, xususan, ijtimoiy-iqtisodiy sohada

erishilayotgan yutuqlar, yurtimizning eksport va turizm salohiyati, aholi uchun yaratilayotgan quylayliklar keng yoritilganini bildirdi.

Hindiston ommaviy axborot vositalari vakillari "The Economic Times" gazetasi muharriri Dipanjan Roy Chaudhuriga "Oltin qalam" mukofoti topshirilishini olqishlar bilan kutib oldi.

— O'zbekistonga bir necha marta safar qilish sharafiga muyassar bo'lganidagina munamnan, — dedi Dipanjan Roy Chaudhuri "Dunyo" AA muxbiriga bergan intervyusida. — So'nggi yillarda mazmunan boyib borayotgan Hindiston — O'zbekiston munosabatlari turkum maqolalar yozish uchun yangidan-yangi mavzularni taqdim etmoqda. Mamlakatlarimiz, oddiy insonlar o'rtasidagi rishtalar chuqur tarixga ega. Bu esa zamonaviy hamkorlikdagi o'zaro anglashuvda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ikki davlat yetakchilarini yuksak darajadagi samimiy va do'stona munosabatlar bog'lab turibdi, o'zaro savdo faollashmoqda, turizm rivojlanmoqda. Ishonamanki, yana ko'plab hind sarmoyadorlari O'zbekiston bozoriga faol kirib bordi. Chunki ular uchun jozibador muhit yaratilgan. Mening arzimagan mehnatimni yuksak qadrlab, OAV xodimlari orasida yuksak mavqega ega xalqaro tanlovning ikkinchi o'rniga munosib ko'rgan uchun O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasiga minnatdorlik bildiraman.

Tadbir ishtirokchilari O'zbekiston va Hindiston hamkorligining istiqbollari xususida o'zaro fikr almashdi.

"Dunyo" AA
Dehli

BUYUK O'ZBEK YO'LI

DEMOKRATIK
TRANSFORMATSIIYA

Haq-huquqni talab qilish va burchga mas'uliyat muvozanatlashgan jamiyatga intilyapmiz

Islombek RUSTAMBEKOV,
yuridik fanlari doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

Huquqiy ong o'sishiga zamin

Ko'zlangan marraga erishish uchun huquqiy asos va muhit yaratilishining o'zi yetarli emas. Demokratik jamiyatni shakllantirish uchun odamlar huquq va burchini yaxshi bilishi, anglashi kerak. Shu bois, mamlakatimizda huquqiy savodxonlikka qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu faqat qonunchilikdagi yangiliklarda emas, balki yurtodoshlarimiz ongidagi mutlaqo yangi qarashlar, o'zgarishlarda ham aks etyapti.

Tabiiyki, demokratik transformatsiya jarayonida yurtodoshlarimiz o'z huquq va majburiyatlarini haqida ko'proq xabardor bo'lmoqda. Ular adolat va tenglikka intilyapti. Zarur vaqtlarda haq-huquqini talab qilish, amaliy natijaga erishish imkonligiga ishonch bildirdi. Natijada mazkur masalada qonuniy asos yaratildi. Bugun ushbu masala ko'tarilmayotgani hech qayerda fuqarolarning yashash uyi buzilmayotganini anglatmaydi. Hozir ham bunyodkorlik ishlari jadal davom etyapti. Ammo bu ishlar huquqiy asosga tayanib, hal etilayotgani bois, masala kun tartibiga chiqayotgani yo'q.

Davlatni barqaror rivojlanish, erkinlik, adolat va farovonlik tomon etadigan kuch demokratiya va qonun ustuvorligidir. Ularning jamiyat va davlat hayotidagi ahamiyatini kema dvigatelga qiyoslash mumkin. Kema cheksiz ummonda ko'zlangan manzilga o'z vaqtida, talafotsiz yetib olishi uchun dvigatel quvvati muhim o'rin tutadi. Ayni damda shurnal boshqaruvdagi kema kapitani tomon to'g'ri qarori motor kuchini kerakli tomon yo'naltiradi. Mazkur jarayonda kema kapitani ahilligi, bir-birini tushunib harakat qilishi ham muhim. Shu bois, mamlakatimizdagi huquqiy o'zgarishlarni barcha islohotlarning bosh mezonini, deyish mumkin.

Albatta, biz eng muhim jihat — inson huquqlari haqida unutmashimiz kerak. O'zbekistonda har bir inson hurmat qilinadi. Har bir huquq himoyada. Davlatimiz rahbari ta'bir bilan aytganda, "Hech kim muammolari bilan yolg'iz qoldirilishi mumkin emas".

Inson huquqlari shunchaki qog'ozdagi so'zlar emas. Ular har bir fuqaroning qalbi va ongiga ko'chmoqda, aholining turmush tarzi, shuuri va tafakkuriga ta'sir qilmoqda.

Huquqiy ongning shakllanishi mamlakat taraqqiyot sari to'g'ri yo'ldan borayotganini ko'rsatib beradigan dastlabki belgidir.

Xalqimizda huquqiy ong shakllanayotgani balandparvoz gap emas. Masalan, yurtodoshlarimiz mol-mulkini himoya qilish uchun "snos"lar muammosini ko'targanini aytdik. Bugun daraxtlar kesilishi bilan bog'liq yoki shunga o'xshash holatlar ko'proq kun mavzusiga aylanyapti. Hatto shu ishga javobgar mas'ullarga chora ko'rilishiga erishilyapti. Ana shuning o'ziyoq jamiyatimizda, aholi orasida huquqiy davlatchilikka ishonch kuchayib borayotgani va hayotdagi barcha masalani qonun doirasida hal qilishga kirishilganini ko'rsatadi. Inson o'zgarishlarga sabab bo'lishini bilsagina harakatga keladi. Siyosiy iroda tufayli xalqimiz orasida huquqiy jamiyat qurish harakati boshlandi. Buning uchun qonuniy asos yaratilganini ham alohida e'tirof etish kerak.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda inson huquqlari kafolatiga oid normalar 3 barobar ko'paytirildi. Inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlari ishlab chiqildi. Masalan, endi qonunlardagi noaniqliklar inson foydasiga hal bo'lishi, "sukut saqlash" huquqi birinchi marta belgilab qo'yildi.

"Sukut saqlash" inson huquqini himoya qilishda, gumondorning kelgusi hayotini belgilab beradigan juda muhim faktor. Shu bilan birga, konstitutsiyaviy qoidalar asosida advokatlar maqomining tergovchi va prokuror maqomiga tenglashtirilgani sohada qonun ustuvorligi ta'minlanishi isbotidir.

Konstitutsiyaviy huquqlar xalqchil tus oldi

Bosh qonunimizning 15-moddasida Konstitutsiya to'g'ridan to'g'ri amal qilishi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etishi belgilandi. Shunga muvofiq, davlat organlari, mansabdor shaxslar, shu jumladan, sudlar Konstitutsiya normalarini amaliyotda bevosita qo'llagan holda qarorlar qabul qilmoqda. Bu orqali fuqarolar Konstitutsiya normalaridan to'g'ridan to'g'ri foydalanadi.

Konstitutsiyadan foydalanishning osonlashtirilishi demokratik davlatning asosiy belgilaridan biridir. O'z o'rnida demokratik va huquqiy davlat qonun ustuvorligi, inson huquqlari to'laqonli himoyalangan va davlat hokimiyatining qonuniyligi bilan tavsiflanadi. O'zbekiston ushbu jabhalarda jadal rivojlanish yo'lida bormoqda.

Masalan, fuqarolarning odil sudlovga erishish imkoniyati sezilarli darajada kengaydi. O'z huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qilishga odamlarning ishonchi ortib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida, qonun ustuvorligini ta'minlash va adolatni qaror toptirishda muhim qadam bo'lmoqda. Xo'sh, odamlarning sudga ishonchi qanday mustahkamlandi?



Prezidentimiz Oliy Majlisga 2017-yil 22-dekabrda Murojaatnomasida sudlar faoliyatiga to'xtalib: "Bu sohada islohotlarni qat'iy va izchil davom ettiramiz. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga xalqning o'zi baho beradi. Ularga bo'ladigan qat'iy talab xalqning huquq va manfaatlarini himoya qilishdir", deya ta'kidlagan edi.

Bundan buyon qonunlardagi noaniqliklar inson foydasiga hal bo'ladi. Eng muhimi, "Qonun — muqaddas, har qanday holatda ham adolatni qaror toptirish sharti!" degan qarash jamiyatning har bir a'zosi, ayniqsa, mansabdorlar uchun hayot qoidasiga aylinishi kerak. Shu bilan birga, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish uchun sudlarning odil va mustaqil ish yuritishini albatta amalda ta'minlashimiz zarur", deb ta'kidladi. Bugun mazkur o'zgarishlar natijasini har birimiz o'z hayotimiz va faoliyatimiz misolida yaqqol ko'rib turibmiz.

Alohida bo'lim

Huquqiy muhit yaxshilanishi natijasida fuqarolar va tashkilotlar uchun yangi imkoniyatlar ochilmoqda. Kadrlar salohiyatini oshirish, moliyaviy savodxonlikni kuchaytirish, tadbirkorlikka ko'maklashish kabi yo'nalishlardagi huquqiy islohotlar yurtodoshlarimiz uchun muvaffaqiyatga erishish imkonini kengaytirmoqda.

Mazkur jabhadagi islohotlar malakali kadrlarning o'ziga munosib o'rin topishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, Konstitutsiyamizning 37-moddasida "O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa egadirlar", degan qoida belgilangan. Natijada davlat xizmatchilarini tanlash, salohiyatini rivojlantirish va lavozim pillapoyalaridan yuqorilab borishi uchun huquqiy makon vujudga keldi.

Ushbu konstitutsiyaviy norma davlat xizmatiga kirishdagi illatlarga butunlay barham berdi. Natijada zamonaviy bilimiga ega, yuqori salohiyatli kadrlarni ochiq va shaffof tanlov tizimi orqali ishga qabul qilish mexanizmi yaratildi. Boshqacha aytganda, davlat xizmatiga kirishda barcha fuqaroga teng shart-sharoit yaratish orqali kadrlarni mahalliylik, urug'-aymoqchilik, tanish-bilishchilik yoki shaxsiy sadoqat belgilari bo'yicha tanlash kabilarga chek qo'yildi.

Zamonaviy tanlov asosida kadrlarni saralash orqali eski usullardan voz kechildi. Kadrlarning intellektual salohiyati, ma'naviy fazilatlarini baholaydigan ochiq va oshkora tanlov tizimi joriy etildi. Shuningdek, korruptsiyaning oldini olish bo'yicha davlat xizmatchilarini muntazam o'qitish va bilimni baholab borish yo'lga qo'yildi.

Kadrlar bilimi va salohiyatini to'g'ri baholab ishga qabul qilish doim muhim vazifa bo'lgan. Zotan, adolatli tanlov asosida lavozimni egallagan va halol mehnati bilan xalqqa xizmat qiladigan davlat xizmatchilari korpusi mamlakat va jamiyatning rivojlanish

kursini belgilab beradigan asosiy omillardan biridir.

Davlat xizmatiga salohiyatli kadrlarni keng jalb qilish orqali mamlakatda boshqaruv samaradorligi va barqarorligini ta'minlashga sharoit yaratiladi. Barcha bo'g'inda vazifasiga sadoqatli, vatanparvar kadrlar kelishi ish unumdorligini keskin oshiradi. Shu orqali xalqning davlatga ishonchini mustahkamlaydi. Jamiyatda o'zaro hurmat, ertangi kunga ishonch ortadi.

Huquqiy demokratik jamiyat shu yo'sin shakllanadi. Bugun boshlangan islohotlar ana shu jihatlari bilan xalqchil va yashovchan ekanini e'tirof etish zarur. Zero, mamlakatimizda huquq va majburiyatlar ustuvorligini ta'minlash orqali xalq farovonligi va yurt obodligiga erishishni



maqsad qilganmiz. Bu yo'lda hali bajarilishi kerak bo'lgan qator vazifalar borligini unutmashimiz kerak. Ularning kutilganiday amalga oshirishida esa barcha fuqarolarning o'rni birdek muhim.

Islohotlar izchilligi huquqiy tafakkurimizga bog'liq

O'zbekistondagi demokratik va huquqiy islohotlar uzoq muddatli va bosqichma-bosqich jarayondir. Shu bois, bu yo'nalishdagi ishlar izchil davom etmoqda. Kelgusida ham qonun ustuvorligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarini kafolatlash, demokratik jamiyat barpo etish ustuvor vazifa bo'lib qoladi.

Bu boradagi barcha o'zgarishlar jamiyatimizda nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy muhitni yaxshilash, balki aholi ong-u tafakkuri, dunyoqarashini o'zgartirishga ham xizmat qilmoqda.

Ayni paytdagi demokratik jarayonlarda har bir fuqaroning ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, huquqiy va demokratik davlatni shakllantirish barchaning faol

ishtirokiga bog'liq. Agar qonunlarga rioya etishga befarq bo'lsak, burchimizni unutsak, huquqimizni ham tiklay olmaymiz. Chunki huquqimizni hurmat qilish kerak bo'lgan shaxslar ham o'z burchini unutmagan bo'ladi. Jamiyatda qonunga bo'ysunish kuchli, huquqiy tafakkur yuqori bo'lsa, barchaning huquqini birdek himoya qilishga erishiladi.

Shu bois, O'zbekistonning har bir fuqarosi o'z davlati va jamiyati rivojiga hissa qo'shishi, demokratik jarayonlarda faol ishtirok etishi shart. Bunda qonun va adolatga rioya etish muhim ahamiyat kasb etadi. Yurtodoshlarimizda huquq va majburiyatlarini chuqur anglash, ularni amalda qo'llash ko'nikmasini shakllantirish zarur.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz aholi uchun huquqiy kafolatlarini mustahkamlash, adolat va tenglik tamoyillariga sodiqlikni ifoda etadi. U nafaqat qonun hujjati, balki O'zbekistonning demokratik va huquqiy davlat sifatida rivojlanish yo'lidagi muhim dasturulamalidir.

Inson huquqlari va erkinliklarining Konstitutsiyada belgilangan kafolatlarini davlat idoralari, huquq-tartibot organlari va fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan amalda ta'minlanishi muhim. Bu boradagi islohotlarni izchil davom ettirish, yangi mexanizmlarni joriy qilish kerak. Zero, mazkur jihatlar jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ustuvor vazifalaridan.

Har bir fuqaro o'z huquqlarini himoya qilish, qonunchilikka rioya etish va o'z navbatida, boshqalarning huquqlarini hurmat qilish orqali demokratik jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylanadi. Faqat shunday ong va mas'uliyatli yondashuv bilan yurtimizning huquqiy va demokratik davlat sifatida rivojlanishiga hissa qo'sha olamiz.

Konstitutsiyamiz huquqiy islohotlarda yangi davrni boshladi. Ushbu yo'nalishdagi sa'y-harakatlar jamiyatimizda allaqachon samara bermoqda. Endi ushbu ijobiy o'zgarishlarni yanada mustahkamlash va kelgusi avlodlar uchun adolatli va erkin jamiyat barpo etishga har birimiz hissa qo'shishimiz kerak. Zero, demokratiya va qonun ustuvorligi har bir fuqaroning ongli tanlovi va mas'uliyatli ishtirokini talab etadi.

Yoshlarga demokratik va huquqiy qadriyatlarini singdirishimiz zarur. Chunki ularni huquqiy savodxon va faol fuqarolar etib tarbiyalash orqali yurtimizning porloq kelajagiga poydevor yaratamiz. Shundaygina ko'zlangan marrani zabt etamiz. O'zbekiston haqiqiy ma'noda demokratik va huquqiy davlatga hamda jahon hamjamiyatining to'laqonli va ilg'or a'zosisiga aylanadi.





Bugunning gapi



DIPLOMATIYASI

U konstitutsiyaviy tus olishi mumkin

Tahlilchilar fikricha, dunyo aholisining chorak qismi istiqomat qiluvchi 25 davlatda har yili suv tanqisligi kuzatiladi. 2050-yilga borib, jahonda suvga talab 20-25 foiz oshadi. Bu insoniyatning qariyb 60 foizi yiliga kamida bir oy o'ta og'ir suv tanqisligini boshdan kechiradi, degani. Yana jahon yalpi ichki mahsulotining 31 foizi (qiymati 70 trillion AQSH dollari) jiddiy suv tanqisligiga duch keladi.

qabul qilish, suv diplomatiyasini kuchaytirish shular jumlasidan.

O'zbekistonda suv resurslaridan oqilona foydalanish, innovatsion yechimlar va tejankor texnologiyalarni keng qo'llash, kanallarni betonlashtirishga katta e'tibor qaratilayotgani, shuningdek, mintaqada transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish hamda ularni boshqarishdagi o'zaro hamkorlik konstruktiv ruhda amalga oshirilayotgani qayd etildi.

Bu borada yuritilayotgan siyosat nafaqat milliy, balki Markaziy Osiyo mintaqasidagi barcha davlat manfaatlarini hisobga olgan holda suv resurslarini barqaror boshqarishga erishishga yordam beradigan muvozanatli va barqaror yechimlarni topishga, do'stona, yaxshi qo'shniçilik munosabatlarni saqlashga qaratilgan bilan diqqatga sazovor.

Suv resurslarini boshqarish xalqaro instituti direktori Mark Smitning aytishicha, O'zbekiston suv xo'jaligida juda katta ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. U bunday xulosaga o'z-o'zidan kelgani yo'q. Chunki qatorida 2024-yil "Kanallarni betonlash bo'yicha zarbdor yili", deb e'lon qilingani, shu maqsadda joriy yilda 5 ming kilometr sug'dolzarb tarmog'ini betonlash vazifasi qo'yilgani, mamlakatimizda suv tejovchi texnologiyalar bilan qamrab olingan maydon 1,3 million gektarga yetkazilganidan bugun ko'pchilikning, xususan, xalqaro tashkilotlar vakillarining ham xabari bor, albatta.

Bundan tashqari, Orol dengizi havzasida joylashgan davlatlar suv resurslarini birgalikda boshqarish va ekologik muammolar salbiy oqibatining oldini olish uchun Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi tashkil



Otobek HAZRATOV,
Suv xo'jaligi vazirligi
bo'lim boshlig'i

Suv tanqisligining bunday darajada ortishi, tabiiyki, odamlar hayoti, oziq-ovqat va energiya xavfsizligiga jiddiy tahdid soladi. Binobarin, dehqonçilik, chorvachilik, elektr energiyasi ishlab chiqarish, umuman, turmush tarzimizda suvning o'rni hech narsa bosolmaydi. Shu bois, bugun obihayotni asrab-avaylash va boshqarishda samaradorlikni oshirish dolzarb masalaga aylanib ulgurdi. Xalqaro uchrashuvlar, forumlar, anjumanlarning asosiy mavzusi shunga qaratilib, quruq gapdan ko'ra, amaliy harakatga kirishish vaqti allaqachon kelgani bot-bot aytilyapti. Shu yil 18-24-may kunlari Indoneziyaning Bali orolida "Suv — umumiy farovonlik uchun!" shiori ostida o'tkazilgan 10-jahon suv forumi fikrimiz tasdig'idir.

Bu forumni 1997-yili Jahon suv kengashi ta'sis etgan. Shundan buyon har uch yilda bir



marta kengashga a'zo mamlakatlardan birida o'tkazib kelinadi. Forum davlat va hukumat rahbarlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, ilmiy doiralari, davlat idoralari, xalqaro tashkilot va fuqarolik jamiyati vakillarini suv resurslarini boshqarishga bag'ishlangan tadbirlarda ishtirok etish uchun birlashtirgan eng yirik platformadir. Ushbu nufuzli anjumanda O'zbekiston delegatsiyasi ham faol ishtirok etadi.

Forumda keltirilgan fakt va raqamlar, bildirilgan fikrlarning barchasi ahamiyatli. Xususan, Jahon suv kengashi prezidenti Loik Fashonning suv resurslarini himoya qilish uchun kurash boshlanganini e'lon qilishi va ushbu gap bir necha bor qayd etilgan diqqatga sazovor. Chunki bugun shunday qilinmasa, ertaga kech bo'lishi mumkin. Buning uchun suv himoyachilari oldiga 7 ta majburiyat qo'yildi. Dunyo bo'yab suv xavfsizligi siyosatini barcha darajada ilgari surish, suvdan foydalanish huquqini konstitutsiyalarda mustahkamlab qo'yish, tabiatga asoslangan yechimlarni kengroq

etilgan. Havzadagi suvni boshqarish uchun davlatlararo suv xo'jaligini muvofiqlashtirish komissiyasi, uning ijro organlari bo'lgan "Amudaryo" va "Sirdaryo" havzasi suv xo'jaligi birlashmalari hamda ilmiy-axborot markazi faoliyati yo'lga qo'yilgan.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2040-yilga borib, 700 million kishi aynan suv tanqisligi sababli ko'chirilishi mumkin. Buncha aholi orasida O'zbekiston xalqi ham bo'lish ehtimoli mavjud. Shuningdek, bir yilda mamlakatimiz sanoat tarmoqlarida 56-57 milliard kubometr suv zaxiralardan foydalaniladi. Ushbu suvning 87 foiziga yaqini qishloq xo'jaligi, 9 foizi elektr energiyasi va baliqçilik sanoati, atigi 4 foizi ichish uchun ishlatiladi. O'zbekistondagi suv zaxiralarning bor-yo'g'i 20 foizi mamlakat ichida hosil bo'lsa, qolgan qismi tashqi manbalarda asosida shakllanadi.

Aholi soni o'sishi va iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi suvga talabni oshiradi. Shundan kelib chiqilsa, uni asrashga qaratilgan har qanday tashabbus va loyihaning ahamiyati ham, qadri ham ortib boraveradi.

Yangicha yondashuvlar



PILLA BOQISH MAJBURIYAT EMAS

balki daromad manbaiga aylandi



Xalqimiz orasida "pilla — tilla", degan ibora quloqqa tez-tez chalinadi. Pillaning qiymatini, mashaqqatini uni boqib, non-tuzini yegan odam yaxshi biladi. Pilla yetishtirishning qiyinchiliklari va mavsumiyligiga qaramay, yurtimizda soha vakillari ko'paysa ko'paydiki, kamaygani yo'q.

Ayni kunlarda mamlakatimizda ilk pilla mavsumi tugallanib, xirmon ko'tarilmoqda. Yosh-yalangdan tortib, nuroniyargacha yeng shimarib, mehnatining samarasini ko'rish taraddudida. Hosil barakali. Pilla mavsumiy bo'lishi bilan birga jahondagi eng qiymatli mahsulotlardan biri ham. Ayni paytda dunyo bozorida "kumush tola"ning bahosi tobora oshib bormoqda.

Prezidentimizning 2024-yil 3-maydagi "Pilla yetishtirish va ipakçilik sohasida bozor mexanizmlarini joriy qilishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni sohada hal qilinishi ko'zda tutilgan masalalar yechimiga yangicha yondashuv bo'ldi.

Ozuqa — muhim masala

Bu sohaning ahamiyati oshishi asosiy ozuqa bazasi bo'lgan tut daraxtiga ehtiyojni oshirib yubordi. Tut daraxti mevasi bilan birga, pilla mavsumida bargi bilan ham katta naf keltiradi. Ayni tut pishig'i mavsumida pilla uchun kallaqab ketilishi daraxt parvarishlagan odamning hafsalasi bo'lishiga, kerak bo'lsa, o'sha daraxtni tag-tomiri bilan kesib, o'tin qilib yuborganiga guvoh bo'lganmiz.

Qo'shrabotlik To'lqin Abulqosimov yigirma yildan ziyod vaqt davomida pilla yetishtirib kelayotganlardan. — Pilla yetishtirishning eng qiyin jihati ozuqa masalasi edi. Buni tushungan odamning sadag'asi ketsangiz arziydi. Hovlisidagi tut daraxtini hech o'ksinmasdan beradi. Ba'zan ozuqa topilmay, pilla qurti nobud bo'lgan holatlar ham kuzatilgan. Keyin esa jarima to'lardik. Umid bilan qo'shni qishloqlarga ham borardik. U yerlarda ham shunday vaziyat bo'lardi, — deya xotirlaydi pillakor.

Prezidentimizning mazkur farmonida tut daraxtini ko'paytirishga alohida urg'u berilgan. Unga ko'ra, 2024-2027-yillarda



tutzorlar maydoni 160 ming gektarga, dala chetida yakka qator ekilgan tut daraxtlari soni 500 millionga yetkazilishi ko'zda tutilgan. Ushbu ko'rsatkichga erishilsa, eng dolzarb muammolardan biri — ozuqa masalasi hal bo'ladi.

Shuningdek, navdor tut ko'chatlarini ko'paytirishga ham alohida e'tibor berilmoqda. Chunki navdor tutning bargi mahalliy tunkigacha qaraganda, mo'l bo'ladi. Bu pillaning sifatli bo'lishi va ko'p hosil olish uchun juda zarur. Bugungacha bunday tut ko'chatlari chetdan olib kelib ekilmoqda, ammo aksariyati iqlim sharoitimizga moslasholmayapti. Shuning uchun mahalliy tut navlarining yangi turlarini ko'paytirish zarur. Shu maqsadda olimlarimiz 20 dan ortiq yangi durayut va navini yaratgan va ular keng miqyosda ko'paytirilmoqda.

Bo'sh yerga, fermerlar uchun ajratilgan maydon chetiga tut ko'chatlari ekish belgilangan. Shu jihatdan Prezidentimizning 2023-yil 1-iyundagi "Pillachilik sohasida kasanachilikni qo'llab-quvvatlash hamda pilla yetishtirish uchun ozuqa bazasini

yanada kengaytirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga binoan, 105 ming gektar yer ijaraga berish uchun aniqlangan boshlang'ich bahosining 10 foizi narxida "E-auksion" elektron savdo platformasiga joylashtirilgani bu boradagi muhim qadamlardan bo'ldi.

Bugungacha tut maydoni 40 ming gektardan 55 ming gektarga kengaydi. Natijada pilla yetishtirish hajmi 2,5 barobar oshib, 26 ming tonnaga yetdi, ipak mahsuloti eksporti 3 barobar ko'paydi.

Sohadagi yangilanishlar nafasi

Davlatimiz rahbari farmonida ko'tarilgan asosiy masalalardan yana biri mahalliyashtirish darajasini oshirish orqali ipak qurti urug'iga ehtiyojni qoplash bo'ldi. Buning uchun joriy yilda Farg'ona va Xorazm

Chindan ham ipakçilik sohasida yangilik qilish, tejankor va iqlimga moslashuvchan pilla qurtini boqish sohaning dolzarb masalalaridan.

— Dunyoda ipak qurtining bir qancha turi bor. Bizga faqat tut ipak qurti yaxshi tanish. Kanakunjut ipak qurti kanakunjut o'simligi bilan oziqlanadi, — deydi Sayfiddin Valiyev. — Kanakunjutning afzalligi shundaki, bizda bahorgi pilla mavsumi tugaganidan so'ng kanakunjut o'simligi ekiladi. Ahamiyatli jihati, bu ipak qurtidan ikki-uch martagacha hosil olish mumkin. Pilla ko'rsatkichi bir oz farq qiladi, xolos.

Yana bir e'tiborli tomoni, qurt tut bilan emas, kanakunjut o'simligi bilan oziqlanadi. Tut bargi bahorgi mavsumda kesiladi. Daraxtlar orasiga kanakunjut ekib, barglarini ipak qurtiga bersa bo'ladi. O'sha harorat, o'sha namlik, ipak qurti parvarishiga yaqin agrotexnik qoidalarga amal qilinadi.

Tut ipak qurtini boqish jarayoni besh yosh va to'rt uyqudan, kanakunjut ipak qurtini esa to'rt yosh va uch uyqudan iborat. Bu o'rash muddati bir oz qisqaradi, degani. Ya'ni qurtlar 20-24 kunda ip o'rashga kirishadi. Vaholanki biz kanakunjutni faqat yug' olish uchun ekamiz, xolos.

Hozir Xitoydan kanakunjut ipak qurtini olib kelish va ko'paytirish bo'yicha muzokaralar boshlangan. Keltirilganidan so'ng ipakçilik ilmiy-tadqiqot institutining tajriba stansiyasida sinov tariqasida ko'paytiriladi. Shundan so'ng sanoatlashtirish bo'yicha alohida chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

Mazkur farmonda mamlakatimizda ishlab chiqariladigan xom ipak sifatini 5A klassga hamda uni qayta ishlash darajasini 75 foizga yetkazish haqida ham qator vazifalar keltirilgan. Bu ham sohadagi muammolar yechimiga xizmat qiladi.

Xo'sh, nima uchun bu borada yuqori natijaga ega emasmiz? Mutaxassis fikricha, bu, eng avvalo, ipakçilikdagi kasalliklar bilan bog'liq. Ya'ni kasalliklarga qarshi dori yoki mahsulot yo'q. Binobarin, ipak qurti toza va dezinfektsiyalangan joyda saqlanishi zarur. Shuning barobarida, agrotexnik qoidalarga to'liq rioya etilishi kerak. Buning uchun esa ozuqa bazasidan to'g'ri foydalanish va takomillashtirish darkor. Bundan tashqari, 2027-yilga qadar ipakçilik sohasida aholining mavsumiy bandligini bosqichma-bosqich 2 millionga yetkazish mo'ljallanmoqda.

Ikki million kishi qanday qamrab olinadi? Chekka hududlarda ishsizlik nisbatan yuqori. Xususan, bu borada ayollar salmog'i nisbatan ko'p. Oila va xotin-qizlar ko'mitasi hamda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi hamda viloyatlar hokimliklari bilan birga har chorakda ishsiz aholi, shu jumladan, ayollar ro'yxatini ipakçilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasiga taqdim etadi. Qo'mita ushbu ro'yxatga asosan, ipakçilik klasterlari bilan pilla yetishtirish agrotexnikasi va pillani qayta ishlash ko'nikmalarini o'qitish kurslari tashkil etadi. Uni muvaffaqiyatli tamomlaganlar esa 105 ming gektar yerda yangi tutzorlar barpo etish va dala chetida yangi tut ko'chatlari ekishga jalb qilinadi.

Sohadagi yana bir yangilik — pillakorlar 2026-yilga qadar ijtimoiy soliq va daromad solig'idan ozod qilindi. Davlat boshlagan islohotlar eng chekka hududlarga ham yetib borishi va samara berishi, xalq farovonligini oshirishi ko'zda tutilgan. Buning ortidan mahsulot yetishtiradigan asosiy bo'g'inning manfaatdorligi ortadi. Manfaaddorlik bor joyda esa mas'uliyat hissi yuksaladi.

Sardor TOLLIBOYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Inson qadri uchun

MA'RIFAT NURIDAN charoq'on kunlar



Munavvara USMONOVA,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
madaniyat xodimi

Boshlanishi 1-betda

Bugungi kunda mazkur oliy ta'lim muassasasi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga doir o'n ikki yo'nalishda qariyb 4 250 talaba tahsil oladi.

Imom Moturidiy bobomizning: "El-u yurt bilan hamdard bo'lib yashagin, toki xalq hamisha sen bilan birga bo'lgay", deya aytgan hayotiy hikmati oliy ilm dargohida faoliyat yuritayotgan har bir o'qituvchi, xodimning shioriga aylangan.

Oldimizga qo'yg'an yuksak maqsad va rejalarimizni real natijaga aylantirish uchun hammamiz bor kuch, bilimimizni ayamadan, fidokorona va vijdonan mehnat qilishimiz, tashabbus ko'rsatib ishlashimiz zarur, — deydi oliy ta'lim muassasasi rahbari, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori Farrux Muxtorov.

Oliyog'ning xushhavo hovlisini ko'zdan kechirar ekanmiz, yoshligim, Farg'onada o'tgan talabalik chog'larim yodimga tushdi. Go'zal va bilim olishga tashnalik ishtiyoqi zavqu surur baxsh etgan qanday davrlar edi. Bir-biriga uyg'unlashgan ko'chalar, osmon bilan bo'yilgan azim chinorlar... Keyingi yillarda yo'lim tushib Farg'onaga kelgan paytlarimda o'sha osmono'par chinorlarni sog'inib, o'kinardim, biz kirib borgan ilmgoh hovlisida esa yuz yillik chinorlar gurkirib turibdi. Kaftdek yerni ham bo'sh qoldirmay turli manzarali daraxt ekilgan. Talabalar uyi yaqinidagi jonli burchakda tovsular, turfa parrandalar ham bor. Gulzorlar orasiga qo'yilgan yog'och qutilar yonida asalari parvarish qilayotgan ustozning atrofini o'rab olgan talabalarni ko'rgan filial rahbari ularga hazilomuz gap qotdi: "Domla, mening lochinlarimga asal yalatdingizmi, ko'rmoq bor-u, yemoq yo'q ekan, deb nomid bo'lmasin-da". Yengil kulgi ko'tarildi. Farg'onacha lutf-la, jiddiy subhatlar ham hazillar bilan eshitganga yengil "hazm" bo'ladi. Hazerin bizga qarab:

Ustozlar, bejiz men o'g'il-qizlarimizni burgutu lochinga mengzamayman, bularning orasida ko'kning ko'zini o'paman, deydi qanday parvozi balandlari bor. Ularning ko'zini yashnatmoq niyatida hovlida parvarish qilinayotgan parranda-yu darranda nima, uyar koinot, astronomiya ilmini astoydil o'rganaypti. Nanosun'iy yo'ldoshlar ixtiro qilish, sinab ko'rish, sun'iy ong yordamida ma'lumot to'plash kabi hali chuqur o'rganilmagan sohalarni tatbiq qilishga bel bog'langanlari ham bor, — dedi g'ururlanib.

Biz ham bog'ning bir go'shasiga nihol qadadik. Daraxtga nomimiz bitilgan tasmani ham ilib qo'ydik. "Bu bog'lar bir bog'lar bo'ladi hali", deya dildan subhatlarni, ijodiy uchrashuvni boshlab yubordik. Tadbir boshlovchisi, oliy ta'lim muassasasi direktorining yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi o'rinbosari Baxtiyor Tolipov adabiyotga ko'ngli oshufta inson ekan.

"Ma'rifat ulashib" loyihasi haqida so'z borar ekan, mana shunday ijodiy muloqotlar, kitobga, she'riyatga, ma'rifatga oshnolik har bir tinglovchining qalbida nurli iz qoldirishi haqida gapirdi...

So'zladik, savollarga batafsil javob qildik. Millatimiz ruhi bo'lgan ona tilimiz, kitobxonlik, azaliy qadriyatlarimizni saqlab qolish va avlodlarga bezavol yetkazish, xalqimizning ong-u tafakkurini yuksaltirish, yosh iste'dod egalari salohiyatini ro'yobga chiqarish, mustaqillikni mustahkamlash borasida so'z aytdik.

So'zga chiqqanlar orasida yoshi ulug' ustozlar, olimlar, talaba yoshlar ham bor.

Olima Gulnora Qo'chqorova 2011-yildan buyon mazkur dargohda faoliyat yuritadi.

Filialimizda keyingi ikki yilda ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Barcha o'quv xonalari zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlangan, jamoamiz orasida sog'lom muhit yaratilgan. Axborot-resurs markazida "Kitobxon onalar va bolalar" loyihasi doirasida to'garak tashkil etilgan, yaqin hududdagi mahallalar onalari va bolalarining bepul kitob mutolaasi uchun imkoniyat qilingan. Farzand tarbiyasi bo'yicha mahorat darslari yo'lga qo'yilgan. Agar ish jarayonida rahbarlarda samimiy munosabat, mehnatga yarasha rag'bat bo'lsa, kayfiyatning ko'tarilib yashaysan. Dars berish mas'uliyati bilangina emas, ish joyingni

sog'inib intilasan, ertaning umidi bilan shodlanib yurasan. Haftaning har juma kunida dars jarayonlariga kirib, ma'rifiy savollariga to'g'ri javob bergan talabaga qimmatbaho tuhfa berib rag'batlantiradigan, yigitlarni lochinim, burgutlarim, bobolarim deb, qizlarni momolarim, barchinlarim deb ekralaydigan, iqtidorli talabaning yutug'idan quvonib, qo'lidagi soatini tuhfa qilib yuborgan rahbar yana qayerda bor?! Mana shu oliyog'ida, al-Xorazmiyning haqiqiy izdoshlari orasida.

Bizga hamrohlik qilayotgan yosh olim Muhammadyunus Norinov oliyog'ida sirtqi bo'lim boshlig'i ekan.

Opa, axborot texnologiyalari, dasturchilik xotin-qizlar uchun hali yangi bo'lishiga qaramay, qulay va serdoramada soha. Dasturchi qizlarimizning qobiliyati, bilimi, shubhasiz, raqamli texnologiyalar rivojiga hissa qo'shadi. Pandemiya keyin dunyo tubdan o'zgardi, biznes yuritish va xizmat ko'rsatish yangi bosqichga ko'tarildi. Global tarmoq — internet, axborot texnologiyalari, sun'iy intellektning insoniyatga nechog'liq zaruriy vosita ekanini, qizlarimiz uyd o'tirgan holda masofaviy yangi kasblarni o'rganishi, o'z ustida ishlashi va olamshumul yutuqlarga erishishi mumkinligini ko'proq targ'ib qilishimiz kerak...

Adabiyotning sara asarlarini o'qish orqali insonda fikrlash, tahlil qilish, xulosa chiqarish qobiliyati shakllanadi. Davlatimiz rahbari bizni kim nima desa, bosh tebratib ma'qullab turadigan, mustaqil fikri yo'q avlodni emas, o'z fikriga ega ongli avlodni kamol toptirishga da'vat etayotir.

Prezident stipendiyasi sovrindori Alisher O'rinboev o'z so'zi, o'z yo'lga ega ana shunday yoshlardan ekan.

TATU Farg'ona filiali dasturiy injiniring yo'nalishi 4-bosqichida o'qiyman. Dadam — tadbirkor, onam — uy bekasi. Faqat a'lo baholarga o'qiganim meni stipendiat darajasiga olib chiqdi. Ustozim Baxtiyor Polvonov bilan birgalikda ko'plab monografiya, tezis, maqolalar yozganmiz. Ilm olishga, yuksalishga imkon yaratib bergan davlatimiz rahbari intilganga o'z nomidan tuhfa yo'llab, qo'llab turar ekan, men yanada shahdarmog' odim tashlab, balandroq marralarni ko'zlashga intilaman.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi stipendiyasi sovrindori Kamola Sobirova:

Telekommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishida 4-bosqich talabasiman. Ustozim O'dinaxon Rayimjonovga doim havas bilan qarayman. Olimalik rutbasini yaratishga va ayol menga nafaqat ustoz, balki onamdek mehribon. Ilm zahmatini chekib, juda ko'plab yutuqlarga erishgan ustozimning izidan yurib, u kabi ilm cho'qqilarini zabt etmoqchiman. Shu o'rinda tengdoshlarimga aytadiganim, muvaffaqiyat kaliti — aniq maqsad qo'yib, bu yo'lga senga yo'lchiroqlik qiladigan chinakam ustozni tanlash, deb o'yalayman.

Islom Karimov nomidagi stipendiyasi sovrindori Shohruhmirzo A'zamov bilan subhatimizda ham ko'nglimizda bir oso'yishtalik sezdik. Odatda onalar o'z farzandi uchun ko'ngli tinch bo'lsa, vujudiga shunday tuyg'ular inadi.

"Otam Alisher Samsaqovning "Bolan, ilm — aql nuri, u insonlarni boriqlik his etish, voqealarni idrok etish, ma'naviy va moddiy olamni anglashga, tafakkurini shakllantirishga undaydi. Ilm jaholatdan yiroqlashtiradi. Ziyoli insonlarni jamiyatning yetakchilari hisoblanadi. Ilm yo'lga tushdingmi, o'rtamiyona bo'lma, yetakchilikka intil. Chunki jamiyatni yetakchilik qobiliyati bo'lgan insonlar boshqaradi", degan gapi hamisha qulog'im ostida jaranglab turadi, — deydi u. — Ota-onamning go'zal niyatlari uchun ham ularga munosib farzand, jamiyatga kerakli inson bo'lish uchun harakatdamin. Maqsadlarim bugun 8 ta dasturiy guvohnoma olishimga,



mutaxassisligim yo'nalishida oltmishga yaqin ilmiy maqolam yozilishiga hamda xalqaro konferensiyalarda ishtirok etishimga asos bo'ldi".

Kompyuter injiniring yo'nalishi 3-bosqich talabasi, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi stipendiyasi sovrindori Asaloy Ergasheva qashqadaryolik ekan.

Ota-onam oliy ta'limni o'qishimni sababli o'qimishli bo'lishimni juda istahardi. Shu sabab o'zim qiziqqan soha — raqamli texnologiyalar bo'yicha o'qishni niyat qildim. Tengdosh dugonalaringma maslahatim — hech qachon harakatdan to'xtamang. Agar kimdir uddalol olmagani bo'lsa, siz ham uddalay olmaysiz, degani emas. Chekinmasdan olg'a borsangiz, albatta, mehnatlaringiz natijasini ko'rasiz. Eng katta motivatsiya ota-onangizning siz bilan faxrlanishidir. Yutuqlarimizda oliyog'imizda 24 soat tinim bilmay faoliyat yuritadigan "Student ofis"ning ham xizmatlari katta, — deydi talaba qiz shosha-pisha.

O'tgan yili filial rahbari tashabbusi bilan zamonaviy "Student ofis" markazi tashkil etildi. Unda 70 dan ortiq xizmat ko'rsatilishi ko'zda tutilgan. Hozirgi kunda mazkur markazda abituriyentlar, talabalar, ota-onalar hamda jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan to'g'ridan to'g'ri, telefon hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali kelib tushgan murojaatlar o'z yechimini topadi. Talaba krediti olishmi, uni hujjatlashtirishmi, ota-ona bilan muloqotmi, o'qishimcha onlayn o'qishlarni surishtirishmi, bir so'z bilan aytganda, talaba yoshlarning o'qishi, boshqa zaruriyatlari uchun beminnat xizmat qiladi bu markaz. Soddaroq tilda ifodalasak, xuddi etaklardagi ochiladurxonning o'zi. Biz ham talaba bo'lganmiz. O'zimizning tashvishimizni o'zimiz tartordik. Bu dirlorlam zamonlarni orzulang, orzusi uchun ham joni bilan boj to'lab o'tib ketgan ajdodlarimiz qancha...

Shunday shukronalik hislari bilan bu yashil shaharga ko'rku salobat berib turgan yana bir oliyog' sari yo'l olamiz.

Vatanimizga taqdir bo'lgan ozodlikning barcha kunlari biz uchun birday aziz, birday



qadri. Ammo bu hur nafasli, tovushlari jaranglab, yuraklarni jaranglatib turgan "ozodlik", "hurriyat" so'zlariga "O'zbekiston" nomi qo'shilsa, bu so'zlar dunyolar qadar ulkanlashib, ko'k qadar yuksalib ketadi. Chunki chorak asrdan ziyod mustaqil yashadik, yashay o'laymiz, demak kurashga, yaratisiga, yengishiga qodirmiz. Biz bu qudratni jahon maydonida o'z erkiga o'zi ega bo'lib yashab kelayotgan millatlar bilan yuzma-yuz kelganda yana ham ishonchliroq namoyon etamiz. Chunki bunday sinovli manzillarda vujuddan



avval ruh, ko'ngil qo'zg'aladi. Or-nomus kabi bebaho tuyg'ular bayroqdek tiklanadi.

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining Farg'ona filialiga kirib kelganimizda ko'ngillarni yana ham shiddatliroq tuyg'ular qamrab oldi. Sportchi o'g'il-qizlarimizning devorlarga ilingan suratlarida yovqur siyratlari akslangandek. Ko'ksiga taqilgan oltin-kumush medallar jarangi har tomondan aks sado berayotgandek... Dunyo shohsupasiga chiqqunga qadar bosib o'tgan yo'llaridagi ramju zahmatlaridan rozi bo'lib, "Yana g'alabaga shaymiz", degandek qarab turgan burgutnigohlar ko'ngil ko'zimizni yashnatib yubordi.



Oliy ta'lim muassasasi rahbari, pedagogika fanlari doktori, professor Nizomjon To'xtaboyevning xonasi o'qituvchi, xodimlar bilan gavjum edi. Yana bir g'alaba nashidasi sabab yuz-ko'zlarida g'urur ifodasi survatlanib turgan rahbar bizni ochiq chehra bilan qabul oldi.

Sportchi yoshlar bilan subhatlarimizdan bir o'lam taassurot oldik. Universitet rahbari kitobsevar, kitob qadriini biladigan inson bo'lgani uchun ham kutubxonalar doim gavjum ekan. Odatda sportchilar jismoniy tarbiya dunyosi odamlariga o'xshaydi. Ular bilan ma'rifat borasida so'zlashish qiyindek ko'rinadi. Ammo bugun bu qarashimiz eskiribdi. Oliyog' talabalari ham har bobdagi so'zlashuvlarga tayyor ekanini ko'rsatib, ko'nglimizni yuksaltirishdi, nafaqat sportchi, balki, zakovatli yoshlar orasida ekanimizdan quvonchlik. Mazkur dargohda dunyo tanigan sportchilar juda ko'p. Filialda jami 1247 talaba tahsil olmoqda. 6 nafar xalqaro toifadagi sport ustasi, 30 nafar sport ustasi va 40 nafardan ziyod sport ustaligiga nomzod bor.

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi, "Tokio-2020" Paralimpiyasi g'olibi Nurxon Qurbonova ham shu universitet talabasi. Qatnada quyosh aks etgandek, bu matonatli qiz bosib o'tgan hayot yo'lida mazkur oliyog'ga faxr-u g'urur bo'lgan



bo'yicha qatnashib, 3 ta oltin medalga sazovor bo'ldi. Bu g'alaba Nurxon "Tokio-2020" Paralimpiadasida uchun yo'llanmani taqdim etdi.

Tokio uning bu irdoladi, intizomli mashqlarini mukofotladi. Yana shunisi tahsinga loyiqlik, u disk ulotirish bo'yicha jahon rekordini yangiladi. Nurxon Qurbonovning matonatli mehnati munosib taqdirlandi, "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi" faxriy unvoniga ega bo'ldi. Kelajakdagi maqsadlari juda ko'p, u uch karra paralimpiada chempioni bo'lishni niyat qilgan. Bu cheksiz zahmatlar egzu niyatlar yo'lga tutashgan chog'i Parijda bo'lib o'tadigan Paralimpiya yo'llanmasini qo'lga kiritdi.

Belbog'li kurash o'zbek millatining asl kuch-quvvatini, ori va g'ururini ko'rsatadigan, halollik, mardlik, jasoratga undaydigan sport turi. Sport turlari fakulteti kurash yo'nalishining 2-bosqich talabasi Oybek Muhammadjonov nomini buvaydaliklar mehr bilan tilga oladi. Boisi, 2008-yildan beri 90 kilogramm vazn toifasida O'zbekiston chempionligini qo'ldan bermagan, yelkasi yerga tegmagan pahlavon hozir 3 karra jahon chempioni.

Inson kurashda yengilmagligi uchun tinimsiz mashq qilishi kerak, — deydi chempion. U o'zi haqida so'z ochilganda Alisher Ahmadjonov, Zohidjon Ismoilov, Sherzod Rahimov, Bobur To'xtasinov kabi ustozlari nomlarini faxr bilan tilga oldi.

Boks maydonchasi yonidan o'tir ekanman, rahmatli Muhammadqodir akamning so'zlari xotirimga keldi. Andijonda sport kolleji qad rostlab, ish boshlagan kezlarda akam o'zida yo'q shodlandi. Menga sim qo'ib: "Bunaqish dunyoda yo'q, bir kelib ko'rsang, umring yuz yilga uzayardi. Kuragi yer ko'rmagan sportchilar tarbiya topadi endi. Bir ura, mushu zarbidan o'tiyaman quladigan Muhammadqodirlar ko'paydi endi. O'quvchilarni yaxshi yedirib, yaxshi tarbiya qilganimizdan bo'yilari ikki metr bo'ladigandek yovqur o'shishaypti..."

Yo'lim tushib kollejga borgan paytim akam faxrlanib menga sport kompleksini tomosha qildirib yurib, boks maydonchasi ustunlari changini qo'lida artib ketsa bo'ladi.

Aka, kap-katta odam, yosh boladay ishlarni qilaisiz-a! Qo'lingiz bilan artganingiz nimasi?

Akam menga qarab bir kulib qo'ydi-da, chang artgan kaftini yuz-ko'ziga surtib:

Bu joylarning gardini ko'zingga surtsang arziydi, singlim, — dedi. Keyin mashq qilayotgan ikki bokschi o'smirni ko'rsatib davom etdi. — Qara, peshonasida oqqan terlarni, uyar mehnat qilib ter to'kyapti, sportchilar ham boshqa soha kishilaridek shu yurning or-nomusi, g'ururi uchun zahmat chekadi. Katta arenalarda shohsupaga ko'tarilib, yurning bayrog'ini ko'kka bo'yatganda qaroldek mehnat qilgani yodidan chiqib, o'zini qiroldек his etadi. Kecha ikkita yigitimiz jahon chempionatidan oltin medal bilan qaytdi. Xursandligimdan yuragim qinidan chiqib ketayozdi...

Sporting turlari yo'nalishlari uchun maxsus hozirlangan mashq joylariga navbatma-navbat o'tar ekanmiz, "Aka, ruhingiz tinch bo'lsin, siz orzulagan kunlar oralay yuryapman", deb shivirlab qo'ydim.

Sport turlari fakulteti boks mutaxassisligi talabasi Humoyunmirzo Abdurasulov so'zamol, ochiq yuzli yigit ekan.

Dadam: "Bekorchidan xudo bezor", deb tumanidagi sport maktabiga yetaklab olib borganida 8-sinfda o'qirdim. Ustoz Ulug'bek Ismoilovdan boks sirlarini o'rgandim. Osiyo chempionatida g'olib bo'lib jil qaytgan kunim bag'riga bosgan dadamning quvonchdan yig'laganini ko'rib: "Katta sport ostonasiga yetaklab olib borgan siz, bu g'alaba, bundan keyingilari ham sizniki, dada", dedim. Shodligu g'am birga kelgani kabi g'alaba bilan alam ham yetaklashib yurarkan. O'tgan yili qo'lim sinib qolgan uchun yoshlar o'rtasida o'tkazilgan jahon chempionatiga bora olmadim. Bu kichik jarohat. Hozir 18 yoshdaman. Nasib qilsa, hali juda ko'p jahon chempionatlari o'zbek arslonlari timsolida O'zbekiston sporti qudratini ko'radi. Mening ham hali hayotim oldinda...

Samimiy, quvonchli subhatlarimiz yakuniga yetmay kun poyoniga yetib qolganidan afsuslanamiz. Tabiatning qonuni shunday: kun qaysi bir soatdardir tugaydi. Lekin buyuk millatlik, buyuk xalqlik orzusi bilan tinimsiz olg'a intilyotgan yosh yuraklarning yo'li davom etaveradi...

Nurxonning so'zida emas, amalda ham shu shahd bor edi. U 2021-yilning qishida Dubay shahrida bo'lib o'tgan musobaqada sportning yadro, disk, nayza ulotirish turlari





Mahorat saboqlari

Javlon UMARBEKOV:

TOG'LAR MAHOBATI
UZOQDAN YAXSHI BILINADI

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, akademik Javlon Umarbekov bilan uchrashar ekanman, yoshlarga ayni paytda qahramonimiz kabi ustozlar juda-juda kerakligi, fursat borida ularning bilimi-yu tajribasini olib qolish zarurligini yanada teran anglagandek bo'ldim. Zero, musavvirimiz ta'bir bilan aytganda, bugun zamon erkin, ijodkorga barcha narsa muhayyo, hatto davlat qo'llab-quvvatlab, moddiy-ma'naviy rag'batlantirib turibdi. Endi yoshlardan shu yurt, shu muqaddas Vatan ravnaqi, uning jahonda mustahkam o'ringa ega bo'lishi uchun faqat o'qish-izlanish va fidoyilik talab etiladi, xolos. Shunday mulohazalarni aytar ekan, rassom beixtiyor bolaligini esga oladi:



Uzoq safarlardan kelsam, ustaxonam juda sovuq ko'rinish ketadi. Muhitga moslashib olish qiyin bo'ladi-da. Chunki his-tuyg'udan bir oz chiqib ketgan bo'lasiz. Har kuni borsangiz, ijod sizniki. Shuning uchun ustaxonamga borib, o'zim bilan o'zim suhbat quraman, rasm chizaman. Odatda oldindan uzoq muddatga reja tuzmayman. Shundoq ham diqqat-e'tiborida turadigan 5-6 ta qilinishi kerak bo'lgan ishni o'z vaqtida, har qanday sharoitda qilaman.

...Bundan ikki yil avval Birlashgan Arab Amirliklari matbuotida e'lon qilingan bir maqolada Javlon Umarbekov haqida shunday yozilgan edi: **"Rassom o'zbek xalqi boy merosining o'ziga xos talqini tarqatib o'tirish uchun Sharq madaniyatlarini o'rtasida erkin muloqotga chaqiradi. Bularning barchasida ijodiy erkinlik va yangilik ruhi ko'zga tashlanadi"**.

Albatta, bu musavvir qalbidagi milliylikka, o'zlikka bo'lgan hurmatning, muhabbatning ifodasi.

— Men Chig'atoy darvozada tug'ilib o'sganman. Maktabimiz oldida daraxt bo'yi keladigan do'ngalak bo'lardi. Bu nima ekanini hech kim tushunmasdi. Bir kuni amakim "Javlon, maktabingning oldidagi do'ngalakni buzisharim. Bu ming yillik darvozaning bir cheti ekan. Odamlarga undan o'g'it sifatida foydalanishga, aravalarda bo'lib-bo'lib olib ketishga ruxsat berishibdi", dedi.

Men ulg'aygan joyda kichkinagina, biroq gavjum bozorcha bo'lardi. Dadam bilan sut, qatiq, qaymoq olardik. Qo'qon aravalar somon



avvalo, jahon galereyalari bilan yaqindan tanishishga undaydi. Bundan tashqari, dunyo kechish rassomga yana nimalar berishi mumkinligi haqida aytadi.

— Dunyo kechish sizni yashab turgan muhitingizga uzoqdan qarashni o'rgatadi. Yaponiya, Xitoy, Yevropa davlatlarida bo'lib, o'zinni ko'p sinadim. O'zbekiston juda chiroyli diyori ekanini har safar chetga chiqqanimda chuqurroq his qilaman. Aslida, odam o'zi yashagan muhitda ko'p narsaga tanqidiy qaraydi. Uning go'zalligi, imkoniyatlari darajasida yaratilayotgan shart-sharoitlar bilimaydi. Masalan, Shanxay shahri Nyu-Yorkka o'xshaydi. Bitta ko'chaga kirib 100 metr yursangiz, karton uylarni ham ko'rasiz, 85 qavatli binolarni ham.

Hayotimiz tobora yaxshilanib boryapti. To'g'ri, muammolar ham bor. O'zim ta'lim sohasida bo'lganim uchun uning muammolarini yaqqol ko'raman. Bugun eng dolzarb masala — kadrlar muammosi. Yaxshi kadrlar yetishmayapti. Buning uchun tarbiyani kuchaytirish, ko'proq kitob o'qish kerak.

Bugungi talaba bilan ishlash juda qiyin. O'zimizning oliygoh misolida aytadigan bo'lsam, yoshlarning tayyorgarlik darajasi har xil. Qo'liga qalam ushlamagan talabalar ham uchraydi. Tibbiyotga qo'liga igna ushlamagan bolani qabul qilish mumkinmi? Yo'q, albatta. Afsuski, o'qishga qabul jarayonida hamon rostakamiga ijodiy ishlar tanlovi bo'lmayapti, hakamlar ishlamayapti. Aslida, qabul komissiyasi har bir talabgorning ishini diqqat bilan ko'rish kerak. Men qabul jarayonida ishtirok etmayman. Lekin aniq bilamanki, bo'sh-bayov yoshlar o'tib ketib, ishtiroqchilarning qolib ketadigan holatlar uchraydi. Ana shunday talabalarga savol beraman: nega bu institutga kelding? Rassomlik tarixidan xabaring bormi, qaysi rassomlarni bilasan? Bilishmaydi. Hatto internetdan shu ma'lumotlarni topib o'rganishga ham qunt qilmaydi. Institutda o'qib ketish bilangina rassom bo'lib qolmaydi-ku, odam. O'z ustida ishlashi, izlanishi, sayohat qilishi, ko'p kitob o'qishi, tarixni bilishi kerak.

Bir talaba Hamza Hakimzoda Niyoziyning suratini chizib kelgandi. Hamza kimligini bilasanmi, desam, yo'q, deydi uyalmay. O'zing bilmagan mavzu ustida ishlama, dedim. Furqatni bilasanmi, Muqimiy-ni-chi desam, yo'q domla, bilmayman deydi yana. Ko'rmagan voqelikni aks ettirish bilan sun'iy, yolg'on asar yaratiladi. Eng yomoni, yoshlar san'at tarixini yaxshi bilmaydi. Talabalar hammasi ham shunday deydishdan yiroqman. Biroq eng achinarlisi, bugungi yoshlar orasida ertasini tasavvur qilolmaydiganlari ham bor. Ularga san'atning noni juda qattiqligi, san'atning ko'chasi tep-tekis asfalt emas, qatqanoq, tikanli bo'lishini aytaman. Ko'pchiligini ustaxonamga olib boraman. Mana, rassom loqal shunday

sharoitda yashaydi, ishlaydi desam, ha, endi sizning davringiz undaq-bundoq deydiganlari bo'ladi. Keyin bolaligimni aytib beraman. Bitta non olish uchun sahardan navbatga turishimiz, bir burda nonga qanchalar zor bo'lganimiz haqida gapiraman. Onamiz bilan yomg'irlarda nonga soatlab navbatga turardik. Bugungi talabalarning usti but, qorni to'q, tajribali ustozlar dars beryapti. Hamma narsa muhayyo. Ijod qilaman desang, sharoit ham, imkoniyat ham bor. Iste'dodning yuzaga chiqarish uchun seni qo'llab turgan davlat bor. Shunday zamonda yayrab ijod qilmay bo'ladimi? ***

Javlon aka kuyinib aytayotgan muammolar bugun ko'plab umumta'lim maktablarida tasviriy san'atni o'qitishga yengil qaralayotgani oqibatida kelib chiqyapti, desak xato bo'lmaydi. Aksariyat maktablarda o'quvchilar tasviriy san'at darisiga shunchaki havaskorlik to'garigiga qaragandek munosabatda bo'ladi. Grafika nimaligi, natyurmort janri bilmaydigan yoshlar bor. Hatto qalamni durustgina yurgiza oladigan, qobiliyatli o'quvchilar ham nazariy bilimlar mohiyatini anglab yetmayotgani achinarli. Aslida, tasviriy san'atning o'qitilishi bilan odamlar qadimdan shug'ullanib kelgan. Manbalarga ko'ra, qadimgi Misr maktablarida rasm ishlashga o'rgatish muntazam ravishda chizmachilik bilan bog'liq holda amalga oshirilgan. Maktabni bitirayotgan yoshlar ma'lum maydon yuzasini o'lchash va uni qog'ozga tushirish, bino tarhini chizish, ariq va kanallar sxemasini tasvirlay olishning uddasidan chiqishi talab etilgan. Shuningdek, rasm bolalarning yozish savodini chiqarishda ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. Masalan, "o" harfini o'rgatish uchun oyoq rasmi, "q" harfini o'rgatish uchun qo'l rasmi chizdirilgan. Ko'rinib turibdiki, tasviriy san'atni o'qitishning ildizlari juda qadimga borib taqaladi. Bu borada yengil-yelpilikka yo'l qo'yishga haqqimiz yo'q. Tasviriy san'at ilmini egallash borasida talabni kuchaytirmas, musavvirlik tarbiyasining o'ziga xos qoidalarini chuqur singdirmas ekanimiz, oliygohlarga adashib kelib qoladigan yoshlar uchrayveradi.

Biror-bir surat chizar ekan, o'ziga yoqmay qolsa, hech qachon uni yitib tashlamagan yoki otib yubormagan, aksincha, asrab qo'ygan va yillar o'tib, o'sha ijod namunasiga qaytgan, chiroyli ishlagan ekanman, deb o'zini rag'batlantira oladigan taniqli rassom bilan suhbatim uzoq davom etdi. Davlatimiz rahbari yetuk kadrlar tayyorlash, ta'limni rivojlantirish, yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash haqida jon kuydirib gapirayotgan bugungi kunda Javlon Umarbekov singari ustozlarning bilimi, tajribasi, mahorati muhim o'rin tutishi shubhasiz.

Munojat MO'MINOVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

— Texnikumda o'qirdim. Bir kuni ustozimiz bergan topshiriqni chizish uchun uyda xolstga mos mato topa olmay rosa boshim qotdi. Nima qilarimni bilmay turganimni ko'rgan onam sandiqdan oppoq yangi dasturxon olib chiqib berdi. U xolstga mos, sifatli matodan tikilgan edi. Biroq o'rtasidan chok yurgizilib, ulangan ekan. To'g'risi, mato topilganiga xursand bo'lib, bunga e'tibor ham bermabman. Rasmini chizib bo'lgach, ustozimga ko'rsatdim. U kishiga ma'qul keldi.

O'sha yili O'zbekistonda birinchi marta Yoshlar ko'rgazmasi tashkil qilindi. Ustozim Boris Ivanovich "Javlon, kel shu kurs ishingni Yoshlar ko'rgazmasiga beraylik," deb qoldi va o'zi olib borib topshirdi. Qandaydir sabab bilan ko'rgazma ochiladigan kuni emas, ertasiga bordim. Hozirgi Fotosuratlar uyi o'shanda ko'rgazmalar zali edi. Qarasam, mening kartinam ham osig'liq turibdi. "Hosi!" nomli rasm edi. Bir oy osig'liq turdi. Boris Ivanovich bir kuni "O'rol Tansiqboyev boshliq komissiya sen ishlagan rasmini sotib olmoqchi", dedi. Kutilmagan bu xabardan xursandligimning cheki yo'q, deng.

Surat 600 rublga baholandi. Ustozim bilan birinchi ishimni fondga olib bordik. Uni qabul qiluvchilar matoning ulangan joyi bor ekan-ku, deyishdi. Boshqa matoga qaytadan ishlash topshirishga kelishdik. Bo'z mato topib, tarang tortib yelimladim, bir haftada rasmini tayyorlab olib bordim. Qabul qilib olayotgan kishi bo'zning orqasiga barmoqlarini botiribroq tekkingan edi tirs etib yitiril ketdi. Yelinni ko'proq qo'shvorgan ekanman. Afsuski, yana qaytadan chizishga to'g'ri keldi. Bir taniqli rassomning qizi biz bilan o'qirdi. "Javlon, bugun biznikiga kelgin, dadamdan xolst olamiz", dedi. Rassom xolstdan ozgina kesib berdi. 2 kundan keyin ishini tayyor qilib olib bordim. Ikki marta qaytargan haligi kishi "ha, mana bu boshqa gap", deb pulning miqdori yozilgan chekka qo'l qo'yib berdi, kassadan pulni oldim. Uydagilar ham xursand bo'ldi.

Texnikumda o'qish oxirlab qolganda Boris aka menga Moskvada kino rassomlarini

o'qitadigan institut borligi, butun ittifoqdan talabalar qabul qilishi, men ham o'qishni o'sha yerda davom ettirishim mumkinligini aytdi. Pul bo'lsa bor, uydagilarga ma'lum qismini berib, Moskvaga jo'namdim. Qiyin bo'lsa-da, imtihonlardan o'tib, VGIGka kirdim.

Endi o'yulasam, onam bergan o'sha ulangan dasturxon musavvirlik faoliyatimga oq foitba bo'lgan ekan. O'sha rasm kimlargadir sotilib ketdi. Yitilib ketgan ikkinchi rasm esa hozir ham ustaxonamda. Uchinchisi O'zbekiston rassomlar uyushmasining zaxirasida saqlanyapti.

To'g'ri, men bugun musavvirlarga talab kamayib ketganiga haqida ko'p gapiraman. Lekin ilgari rassomlar hayoti qandaydir dasturga solib qo'yilgandek edi. Bo'lajak yosh rassom o'zini ko'rsatgan yaxshi ijodkor bilan birga Madaniyat vazirligi tashkil etadigan ko'rgazmalarga shartnoma tuzardi. Bitta mavzu berilar, kim xohlasa, shu mavzuda eskiz olib kelardi. Eskizni komissiya ma'qul topsa, shartnoma tuziladi, bo'lmasa, yo'q. Masalan, falon oyga, falon so'mga deb.

Ikkinchi tarafdan o'sha kartina muzeylarga eksponat qilib berilardi. Eng asosiysi, rassomga yordam sifatida unga qalam haqi to'langan. Hozir shu tizim yo'q. Bu masala ko'p joyda ko'tariladi, lekin o'zgarish sezilmaydi. Hartugul, keyingi yillarda vaziyat ijodiy tomonga o'zgarimoqda, ishonamanki, asta-sekin o'z iziga tushib ketadi hammasi. Chunki bugun rassomlarga ham sharoit yaratilyapti, ular uchun ustaxonalar qurish, kreditga bo'lsa-da, uy-joy ajratish masalalariga e'tibor qaralilyapti. Rassomlar uyushmasi binosi munosib ta'mirlandi.

Davlatimiz rahbari o'tgan yil yakunida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida tasviriy va amaliy san'at sohasini rivojlantirish bo'yicha dastur qabul qilinishi haqida gapirdi. Unga ko'ra, Markaziy ko'rgazmalar zali jahon standartlari asosida rekonstruksiya qilinadi, Badiiy fond hududida zamonaviy galereya binosi quriladi, 40 ta ijodiy ustaxonadan iborat Yosh rassomlar

markazi tashkil etiladi. Shuningdek, xattotlik va miniatyura san'ati ta'limini amaliyot bilan bog'lash maqsadida milliy usulda qog'oz tayyorlash bo'yicha o'quv ishlab chiqarish ustaxonasi faoliyati yo'lga qo'yiladi. Qolaversa, tanlov asosida saralanadigan 20 nafar iste'dodli yosh rassom, haykaltarosh, san'atshunos va muzeysunoslar xorijga stajirovkaga yuboriladi. Bularning bari rassomning hayotini yaxshilash, faoliyatini yanada yuksaltirish yo'lidagi sa'y-harakatlardan dalolat, albatta.

50 yildan oshibdi, Javlon Umarbekov "ijod va yashash men uchun qariyb bir xil tushuncha", degan shiorga amal qilib kelyapti. Qanday qilib deysizmi, bu haqda uning o'zidan eshiting:

Hayotimiz tobora yaxshilanib boryapti. To'g'ri, muammolar ham bor. O'zim ta'lim sohasida bo'lganim uchun uning muammolarini yaqqol ko'raman. Bugun eng dolzarb masala — kadrlar muammosi. Yaxshi kadrlar yetishmayapti. Buning uchun tarbiyani kuchaytirish, ko'proq kitob o'qish kerak.



— Rassom, umuman, ijodkor uchun ham oilani, ham ijodni bir maromda yurgizish juda qiyin. Oilada ikki-chikirlar ko'p. Ustaxonani ham uyim, ham ishxonam, deb bilaman. Ko'pchilik qachon, qay holatda ilhom keladi, deb so'raydi. U kelmaydi, doim siz bilan birga. Faqat u bilan ishlashga vaqt topish kerak. Odamlar gavjum joyda ishlay olish-olmasligim bilan ham qiziqishadi. Yoshligimda hatto bozorlarda ham hech kim bilan ishimiz bo'lmay ishlayverardik. Yosh o'tgani sari xotirjamlikni, sokinlikni istab qolarkan odam. Yoningizda kimdir g'imirlab tursa, fikringiz bo'linadi. Shoir-yozuvchilar asosan, tunda ishlashadi-ku. Rassom muvaznoslarida ham xuddi shunday. Shaxsan mening fikrim — ijod uchun xotirjamlik kerak. Shuning uchun ustaxonamning sokin joyda ekanidan ko'nglim to'ladi. Hech qanday shovqin eshitilmaydi. Faqat yomg'irning shivirlashi-yu, qushlar chug'urini eshitib, o'tob nurining tovlanishi-yu, qor parchalarining o'ynoqi harakatlardan zavqlanaman, qo'lim o'z-o'zidan ishga boraveradi. Busiz ijod bo'lmaydi, aslida. Bo'lishi mumkin, faqat bilgan narsangizni shunchaki chizib qo'yaverasiz, yurakdan chiqmaydi.

tashirdi. Eshak arava, ot aravalarini transport deyishardi. Ijodimda bozorlar-u aravalar ko'p aks etishi shundan. Mening dunyoqarashim mana shunday muhitda shakllandi. Hozir ham o'sha joyga borsam, xotiralar og'ushida qolaman. Ustaxonamdagi mis buyumlar, qadimiy idishlar ham eski shahardan olib kelingan. Ba'zilarining naqshi bor. Jo'mragi, qopqog'i yo'q idishlarni yig'ib qo'yardim. Cho'g'i solib ishlatiladigan dazmol, samovar bolaligimni eslatadi. Bularning bari menga fikr, g'oya, ilhom beradi. Toshkentda, Moskvada o'qib yurgan yillarim sotib olingan kitoblari, o'zbek yozuvchilarining asarlari bor bu yerda. Nasriddin afandi sarguzashtlarining to'rt jildini avaylab saqlayman, negaki, ularda illyustratsiyalar, bebaho so'zlar jamlangan. Abdulla Qodiriyani qayta-qayta o'qiyman. G'afur G'ulom, O'lmas Umarbekov asarlarini ham sevib mutolaa qilaman. Ko'pchilik O'lmas Umarbekov bilan qarindoshmisiz, deb so'raydi. U kishi bilan ijod tufayli aka-ukaday munosabatda edik. Oddiy, kichkinagina hovlida yashardi. Afsuski, hayotdan barvaqt ketdi.

Rassom yoshlarga imkon qadar dunyo ko'rishni tavsiya qilar ekan, ularni

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. **Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — 1799. 44034 nusxada bosildi. **Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolorpak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060. Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy. Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Mansur Jabborov
Musahhir: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy